

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA KVEST  
TEXNALOGIYASI ASOSIDA FAOLIYATLARNI LOYIHALASHTIRISHDA  
PEDAGOGNING ROLI**

*Xalilova Laziza Nabijon qizi*

*Qo'qon davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lism fakulteti 5-kurs talabasi,  
Farg'onan viloyati O'zbekiston tumani 2-DMTT uslubchisi*

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada "Kvest" texnologiyasi tushunchasi, mohiyati, mazmuni, ushbu texnologiya yaratilish tarixi yorotib berilgan. Shuningdek kvest texnologiyasi asosida darslar va faoliyatlarni loyihalashda pedagog talab etiladigan bilim, malak va ijodiy yondoshuv haqida fikr yuritilgan .*

**Key words:** "Kvest" usuli, o'yin, pedagogik kompetensiya, fasilitator loyihalash, texnologiya, maktabgacha yosh, davlat talablar.

### **KIRISH**

Kvest inglizchadan tarjima qilinganda sarguzasht degan ma'noni bildirib, o'yin mashg'uloti mobaynida turli qiyinchliklardan chiqishni o'rgatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Bu usul jamoa bo'lib o'ynaladi va shuning uchun ham bolalar tomonidan iliq qarshi olinadi. "Kvest" atamasini ta'lism texnologiyasi sifatida 1995 yil San-Diego Universitetining (AQSH) ta'lism texnologiyalari professori Berni Dodj tomonidan taklif etgan O'quv kvesti - bu turli xil o'quv modellari texnikasini birlashtirgan, bosqichma-bosqich muammoli vazifalarni hal qilish uchun maqsadli izlanishni sarguzashtlar yoki ma'lum bir syujetga muvofiq o'yin bilan birlashtiradigan dars o'tkazishning muammoli shakli. Ta'limda kvestlardan foydalanishning ijobiy tomonlarini :

- 1.O'quvchilarning ishtiyoqini oshirish.
2. Ehtiyyotkorlikni rivojlantirish, tafsilotlarni sezish zarurati.
3. Ajoyib emotsiyal rang berish tufayli dars materiali yaxshiroq esda qoladi.
4. Guruhda, jamoada ishlash qobiliyatini shakllantirish.
5. Vazifalarning murakkabligini sozlash va har qanday yosh va mavzuga e'tibor berish qobiliyati.
6. Yuqori resurs sarfini talab qilmaydi.

Bugungi kunga qadar "Kvest" texnologiyalarining qo'llashni har xil turlari ishlab chiqilgan bo'lib, ularni I.N.Sokol quyidagicha klassifikatsiyalaydi:

➤ o'tkazish shakli bo'yicha:

- a) kompyuter o'yinli "Kvest"lar. Ya'ni, elektron o'yinlar yordamida ta'lif berish.
  - b) "Veb-kvest"lar. Veb-resurslarni qidirish va tahlil qilish (vebsayt, axborot-ta'lif muhitlari, virtual lug'at va boshqalar);
  - c) QR "Kvest"lari (QR kodlaridan foydalanish);
  - d) Media- "Kvest"lar (Media-resurslarni izlash va tahlil qilish). Ushbu turdag'i "Kvest"larga foto va video resurslar kiradi;
  - e) tabiatdagi "Kvest"lar (ko'chalar, bog'lar va boshqalar);
- o'tkazish uslubi bo'yicha:
- a) amalga oshirish davriga ko'ra "Kvest"lar. Bularga qisqa muddatli kvestlar (o'rganilgan bilimlarni mustahkamlash, ta'limi faoliyatlar orasida qo'llash, mashg'ulotning qiziqarliligini oshirish maqsadida foydalanish);
  - b) uzoq muddatli "Kvest"lar. Bularga bilimlarni mustahkamlash va o'zgartirishga mo'ljallangan uzoq muddatli, o'quv yili davomida bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan faoliyatni ko'rsatish mumkin;
  - c) aynan bir vaqt oralig'ida o'tkaziladigan "Kvest"lar.
- ish shakli bo'yicha: guruh; individual;
- mavzu bo'yicha: mono "Kvest";
- mashg'ulotlararo "Kvest";
- tuzilishiga ko'ra: chiziqli; tarmoqli;

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ilk qadam davlat o'quv dasturida pedagog fasilitator sifatida bolalarga ta'lif tarbiya berishda o'z bilimi, ko'nikma va resurslardan foydalanadi, ta'lif tarbiya jarayonini rejalashtiradi, bolaning har tomonlama rivojlanishiga va uning salohiyatini ochishga hissa qo'shadigan rivojlantiruvchi muhitni yaratadi deb ta'kidlab o'tilgan. Fasilitator- bu an'anaviy ta'lif konsepsiysi doirasida ishlamaydigan, aksincha , bolalarni o'zlarini o'rganish uchun yo'naltiruvchi va yordam beradigan pedagogdir.

Aynan maktabgacha ta'lif tashkilotlarida faoliyatlarni kvest usulida loyihalashtirish pedagogdan fasilitatot bo'lismi va kreativlikni talab qiladi. Bu usul o'yin orqali ta'lif berishga qaratilgan ko'p tarmoqli texnologiyadir. Ushbu texnologiyani qo'llashda tarbiyachi-pedagog erkin holatda turli topshiriqlarni loyiha ichiga joylashtirishi mumkin. Bu esa ta'limda ko'rgazmalilik va noan'anaviylikni yaratish imkonini beradi. Bolalar ilgari bajarishni xohlamagan qiyin topshiriqlarni ham jumboq sifatida qarab ijodiy yondasha boshlaydilar.

Bolalar uchun kvest usulida faoliyatni loyihalashda e'tibor qaratiladigan jihatlar mavjud:

- Qiziqarli nutq tayyorlash;
- Jumboqli vazifa yaratish;
- Sarguzasht uchun o'yinlar rejasini tuzish;

- Axborot uchun resurslar ro'yxatini shakllantirish

Shuningdek, o'z navbatida jumboqlarga ham qo'yiladigan talablar mavjud:

- Mazmunli bo'lishi kerka
- Qiziq bo'lishi kerka
- Yosh hususiyatlari inobatga olinishi kerak

Ushbu maqolada aynan mактабгача yoshdagi bolalar uchun loyihalashtiriladigan kuest o'ynilarida qo'llash mumkin bo'lган jumboq, topshiriqlar haqida ham to'xtalib o'tamiz.

### **Matematik topshiriqlar.**

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari "Bilish jarayoninig rivojlanishi" sohasi kichik sohalari sifatida intelektual –anglash, elementar matematik malakalar hamda tadqiqiy –bilish va samarali refleksiv faoliyat sohalari belgilab qo'yilgan. Kichik yoshdagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishni o'zin, jumboq, qiziqarli topshiriqlar ko'rinishida malga oshirish yaxshi smara beradi. Pazllar yeg'ish, qurish va konstruktorlash topshitiqlaridan kuest o'ynlari da foydalanish mumkin. Shuningdek 6-7 yosh bolalar uchun she'riy jumboq topishmoqlar va masalalar hamisha qiziq bo'lgan. Masalan, o'zin jarayonida bolalar siz matematika orolidan o'tishingiz kerak buning uchun esa orol hukumdorining jumboqlariga to'g'ri javob berishingiz darkor, deya quyidagicha jumboqli savollar tuzish mumkin:

- Qarang ana sahnada, O'ynar ikki dugona.  
Qarsak chalar ularga, Guli, Lola, Durdona.  
Qani ayting , kim bilar?  
Nechta qiz jami ular?
  
- Ukamda 4 olma, akamda 4 ta olma.  
Menga berdilar beshtasin.  
Qoldi ularda nechtasi?
  
- Hovlimizni bezab men, 10 ta gul ko'chat ekdim.  
Gullasin deb ularga, mehr berib suv quydim.  
G'uj-g'uj bo'lib ochildi, yashnab ketib barchasi.  
5 ta sariq, 3 ta qizil, oq rangda to'rttachasi.  
Hisoblab aytchi o'rtoq,  
Qaysi rangli gul ko'proq?  
(muallif Laziza Xalilova)

Shuningdek karra jadvalini qo'shiq holida yodlatish usulini qo'llash maqsadga muvofiq. Sababi bu topshiriq ham qiziqarli va esda saqlab qolishga oson, chunki musiqa va qofiyadosh so'zlar yodda tez qoladi. Bundan tashqari musiqaga mos harakatlar jo'shqinlikni oshiradi. Masalan quyidagicha:

- Bolajonlar yo'limizda davom etishimiz uchun matematika ko'prigidan o'tishimiz kerak, lekin bizda muammo bor. Ko'priksi ta'mirlash kerak ekan. Unga yetishmayotgan qismlari karra jadvalida yashiringan. Keling qo'shiq kuylab, to'g'ri javoblarni topamiz va har bir to'g'ri javob bilan ko'priksining qismlarini to'ldiramiz!

(Ko'priksi to'g'ri javoblar yozilgan qismlar yetishmaydi. Bolalar to'g'ri javob yozilgan qismlarni topib navbat bilan ko'priksi to'ldirib boradilar)

- Ikki karra ikki to'rt bo'ladi, Buni bilsang do'stim zo'r bo'ladi.

Ikki karra uch teng olti, Buni endi hamma bilib oldi.

Sakkiz bo'ldi ikki karra to'rt, ishonmasang ko'paytirib ko'r!

Ikki karra besh o'nku axr, Bilmaysanmi buni Toxir.

Ikki karra olti o'n ikki, Yodlab ol eshitmay dakki!

Ikki karra yetti o'n o'n to'rt deng,

Ikki karra sakkiz o'n oltiga teng.

Ikki karar to'qqiz o'n sakkiz, Bilib oldik shubhasiz.

Qani o'yna tek turma, Ikki karra o'n yigirma.

(muallif Laziza Xalilova)

Art kvest- shartli ravishda bolalar Yoshi inobatga olinib tuzilgan rasmli jumboqlarni shunday deb atashni maqul deb topdik. Ya'ni o'qituvchi jumboqli topshiriqni aytadi bola esa aytilgan topshiriqni navbati bilan chizish orqali yakunida jumboqli rasm nima ekanligini topadilar. Masalan:

- Yarim doira chizamiz, Diqqat bilan sol qulqoq.

Doira o'rtasidan ilib qo'ydik bir ilmoq.

Qarab boq u yon bu yon.

Tayyor mana .... (soyabon)

- O'rtada bir aylana, sariqqa bo'ya avval.

Aylanani o'ragan, jami oltita oval.

Tirab turadi uni , Uzun yashul bir tayoq.

Tayoqda joylashibdi, ikkita yashil yaproq.

(muallif Laziza Xalilova)

Shu kabi jumboqlar aytiladi va bolalardan yakunida nima hosil bo'lgani so'raladi. Bunda jumboqlar bolalar uchun qiziq, sababi tasviriy faoliyat ular uchun eng

sevimli mashg'ulotlardan biridir. Shuningdek bu jumboqlar bolani mantiqiy fikrlashni, rang va shakllarni ajratishni o'rganadilar.

## XULOSA

Tadqiq qilishga asoslangan “Kvest” texnologiyasining afzallik jihatlarini shunday talqin qilish mumkin:

- Tarbiyalanuvchining aqliy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan qiziqarli o'qitish texnologiyasi bo'lib, bolaning tasavvur olamida yashash imkoniyatini beradi;
- O'yin orqali ta'lif berishga qaratilgan ko'p tarmoqli texnologiyadir. Ushbu texnologiyani qo'llashda tarbiyachi-pedagog erkin holatda turli topshiriqlarni loyiha ichiga joylashtirishi mumkin. Bu esa ta'lifda ko'rgazmalilik va noan'anaviylikni yaratish imkonini beradi. Bolalar ilgari bajarishni xohlamagan qiyin topshiriqlarni ham jumboq sifatida qarab ijodiy yondasha boshlaydilar.

Shuningdek faoliyatlarni kavest texnologiyasi asosida loyihalashtirish har ikki tomon uchun ham manfaatlidir. Sababi loyihalash jarayonida o'qituvchi izlanadi, faoliyatga kreativlik bilan yondashishga harakat qiladi. Shuning uchun T. A. Kuznetsova kvestga o'qituvchi tomonidan yaratilgan interfaol ta'lif muhiti deya ta'rif beradi. O'z navbatida sarguzash ichiga sho'ng'ib ketgan o'quvchi topshiriqlarni bajarish jarayonida qiyin savollarni topadi, mushkul vaziyatlarga yechim topadi va oxir oqibatda mustaqil fikrlashga o'rganadi, o'yin orqali bilim, malaka va ko'nikmasini oshirib boradi.

Ushbu kvestlarni qo'llash orqali ta'lif sifatining yanada oshirilishiga va o'quv jarayonining tushuarli va aniq bo'lishiga erishish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ilk va maktabgacha yoshdag'i bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari Toshkent 2018 1-mx-son
2. Ilk qadam davlat o'quv dasturi. Takomillashtirilgan ikkinchi nashr Toshkent 2022
3. Образование наука и инновационные идеи в мире № 49 “Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida faoliyatlarni kvest texnologiyasi asosida loyihalashtirish” L xalilova.
4. Кичерова, М. Н. Образовательные квесты как креативная педагогическая технология для студентов нового поколения [Элек-тронный ресурс] / М. Н. Кичерова, Г. З. Елфимова // Интернет-журнал «Мир науки» 2016, Том 4, номер